

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ESHONJONOV BOBIR ZAFARJONOVICH

**MIGRANT OILA FARZANGLARIDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Eshonjonov Bobir Zafarjonovich

Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish
texnologiyalari 3

Эшонжанов Бобир Зафарджанович

Методика формирования педагогических ценностей у детей семей
мигрантов..... 25

Eshondjanov Bobir Zafarjonovich

Methodology of forming pedagogical values in children of migrant
families..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

ESHONJONOV BOBIR ZAFARJONOVICH

**MIGRANT OILA FARZANGLARIDA PEDAGOGIK QADRIYATLARNI
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2 PhD/Ped 10395-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tdpu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Qurbonova Maftuna Faxriddinovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar

Voxidova Norposhshaxon Habibullayevna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Abdug‘aniyev Ozod Tursunboyevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dotsent

Yetakchi tashkilot

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

M.E.Mamarajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati Jahon ta'lim tizimida migrantlar sonining ortishi, ularning madaniy xilma-xillikni oshirishi va yangi jamoaga integratsiyalashuvi jarayonlari ijtimoiy fanlar va pedagogika sohalarida dolzarb masalalar sifatida ko'rib chiqilmoqda. Hozirgi kunda dunyoda 36 milliondan ortiq migrant o'quvchilar bo'lib ular turli mamlakatlarning ta'lim muassasalarida o'qimoqda. YUNESKOning madaniyatlararo ta'lim dasturida migrantlarning madaniy qadriyatlarini saqlash va ularni yangi jamoalarda muvaffaqiyatli integratsiyalashishini ta'minlash, migrant o'quvchilarning yangi muhitga kirish jarayonida o'z milliy qadriyatlarini saqlab qolish bilan birga, qabul qiluvchi yangi jamoaning ijtimoiy-axloqiy me'yorlariga muvaffaqiyatli moslashish, o'quvchilarga bilim berish bilan birga, o'z-o'zini anglash, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va turli madaniyatlar bilan muloqot qilish qobiliyatini oshirish jamiyatda o'zaro hurmat, tolerantlik va hamjihatlikni rivojlantirish asosida tizimli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahondagi ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida migratsiya holati, uning murakkabligi va ko'p qirrali xususiyatlari, migratsiya jarayonlarini global siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligini, madaniy merosga ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Migrant o'quvchilarni ijtimoiy moslashtirish jarayonida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish metodikalarini takomillashtirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda mehnat migratsiyasi jarayonlarida ota onalarning bevosita ishtiroki, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ta'sirchanligini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi PQ-№-3907-sonli Qarorida "Intellektual salohiyatli yosh avlod, xususan o'smirlar bilan doimiy muloqot o'tkazish sohaga oid dolzarb muammolarni aniqlash hamda ularni hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarda o'z millatiga sodiqlik, o'z taqdiri uchun qayg'urish va daxldorlik hissini kuchaytirish, ularning qalblarida yot g'oya va salbiy qarashlarning ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi va natijada kutilgan ijobiy samara berilmayotganligi kuzatilmoqda"¹, deb ta'kidlangan. Natijada innovatsion yondashuvlar va mexanizmlarni joriy etishning ilmiy-metodik asoslari va amalga oshirish mexanizmlarini ishlab takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020 yil 15 sentabrdagi PQ-4829-son "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 25-yanvardagi PF-5313-son "Umumiy o'rta, o'rta

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash to'g'risida" PQ-№-3907-sonli Qarori // Qonunchilik bazasi 14.08.2018-y

maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi: Migrant oilalar farzandlarining integratsiyasi va ularda qadriyatlarni shakllantirish masalalari pedagogika, sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik fanlari doirasida o'rganib kelingan. S.Boymurodov, G.Azamatova, S.Alimov, D.Isroilova, J.Goyibov, M.Nosirova, H.Haitov, X.Abdusamatov, G'.Shoumarovlar, F.Parmonov tadqiqotlarida migratsiyaning demografik, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik jarayonlari; M.Tojiyev, B.E.Ergashev, Sh.Mardonov, B.X.Xodjaye, Sh.Z.Taylanova, Sh.A.Abdullayeva, S.Alimov, E.T.Kalkanov, K.Kalanov, A.Rasulov, M.Quronov, E.Y.Yusupov, I.M.Saidovlar ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, yosh avlodda vatanparvarlik, insonparvarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

MDHdan V.Ionsev, L.Varakina, O.Vorobyova, D.Zaslavskaya, A.Baranov, D.Shelestov, N.Gordeyev, T.Demicheva, D.Tomayeva, O.Suyarkova, S.E.Avazovlar migratsiya tarixi, migratsion jarayonlarni iqtisodiy kontekstga ta'siri, migratsiya jarayonlarining qonuniy tartiblari migratsiya jarayonlarining ijtimoiy fenomenini; G.U.Soldatova, T.D.Martinkova, L.A.Shaigurova, V.I.Kashirin, F.V.Gobichiya, M.M.Kovalevskiy, Ye.V.Zaika, S.A.Stivenson, E.B.Melnikovalar migrantlar muammolarini psixologik, pedagogik va sotsiologik jihatlardan tadqiq etishgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan S.Kastls, K.Kozer, E.Maxandra, M.Miller, M.Natter, M.Flaxo, M.Chayka, S.Angenendt, F.Kastelli, S.Djulyetti va A.Klemens ilmiy ishlarida migratsiyaning globallasuvi, xalqaro migratsiyaning asosiy tendensiyalari; N.Kholik, A.Achadah, J.Danurahmanlar multikultural ta'lim, etnik o'zlikni anglash, madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish, migrant o'quvchilarning ta'limdagi muammolari, ijtimoiy moslashuvi va ijtimoiy integratsiyasi masalalarini tadqiq etishgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasi doirasida AIF 1/2 raqamli "Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida "O'quv-ilmiy kompleks" tashkil etish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan (2023-2025 yillar)

Tadqiqotning maqsadi migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslarini aniqlash, ijtimoiy fanlar misolida amaliyotga yo'naltirilgan metodikasini ishlab chiqish va takomillashtirishga tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik modelini takomillashtirish;

migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayonlarini takomillashtirish;

migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayonini samaradorligini aniqlash;

Tadqiqot obyekti sifatida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish jarayoni tanlanib, tajriba-sinov ishlariga Chust tumani 76-maktab, Parkent tumanidagi 26-maktab, Ishtixon tumanidagi 54-maktabdan 365 nafar respondentlar jalb etildi.

Tadqiqot predmetini migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish, prognostik (umumlashtirish, baholash), deskriptiv, kuzatish, sotsiometrik; shuningdek, monitoring, pedagogik tashxis, tajriba-sinov; pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil; natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

migrant oila farzandlarida o'quv-tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari turli madaniy muhitlardan kelgan bolalarda o'zlikni asrab qolishda milliy va umuminsoniy merosni yangicha qadriyatlar bilan insonparvarlashtirish muhitini hissiy uyg'unlik ko'rsatkichlari emotsional rezonansni kuzatish asosida aniqlashtirilgan;

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish modeli turli madaniy muhitlarga moslashuvchan muloqotda shaxsga yo'naltirilgan individual va umumbashariy qadriyatlarni anglashga yo'naltirilgan ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishning pedagogik ta'sir vositalarini bifurkasion rag'batlantirish asosida takomillashtirilgan;

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bolaning ijtimoiy va turmush sharoitlarini pedagogik baholash, uning yangi ijtimoiy muhitga ko'nikish inkubatsiyasini va nostandart sharoitlarda o'z huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan fuqarolik pozitsiyasini voqelik faktorlari va shaxsiy qiziqishlariga muvofiq moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

ta'lim jarayonida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish samaradorligi ko'pmadaniy muhitda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi interaktiv, kognitiv funksiyalarni transmadaniy muloqot texnologiyalaridan foydalanishda migratsion jarayonlarning o'ziga xos ijtimoiy jihatlarini etnomadaniy hususiyatlariga muloqot orqali moslashuvchanligi asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga qaratilgan o'quv bosqichlari mazmuni hamda

hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish mexanizmi takomillashtirilgan;

migrant oila, migrant o'quvchi, pedagogik qadriyatlarni shakllantirish metodikasi kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati mualliflik yondashuvi asosida pedagogik talqin etilgan hamda pedagogik qadriyatlar asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirishga doir o'quv dasturiga tavsiyalar ishlab chiqilgan;

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish asosida ta'lim-tarbiya sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilib, empatik munosabatni shakllantirishga qaratilgan interfaol metodlar hamda o'quvchilarda tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv tadqiqot maqsadi, obykti, predmeti, vazifalariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanilganligi, tajriba-sinovga jalb etilgan umumiy o'rta ta'lim maktablari soni talab darajasida ekanligi, tajriba-sinov natijalari statistik ma'lumotlarga tayanilganligi va matematik statistik jihatdan qayta ishlanganligi hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ishlar mazmuniga ko'ra izohlanadi. Tadqiqot muammosiga tizimli va izchil yondashuv, tadqiqot ishi bo'yicha olib borilgan tajriba-sinov natijalari va ularning pedagogik tadqiqotlarga qo'yiladigan zamonaviy talablarga mosligi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va reprezentativligi ta'minlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishda hamkorlik munosabatlarini modellashtirish tizimining nazariy – pedagogik, didaktik imkoniyatlari, tamoyillari, bosqichlari, pedagogik shart – sharoitlarining aniqlanganligi, metodologik yondashuvlar mohiyatining ochib berilganligi, migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy - nazariy tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan metodik ta'minot, migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalaridan pedagogik fanlar mazmunini takomillashtirishda va kasbiy tayyorgarlikni oshirish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

migrant oila farzandlarida o'quv-tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari turli madaniy muhitlardan kelgan bolalarda o'zlikni asrab qolishda milliy va umuminsoniy merosni yangicha qadriyatlar bilan insonparvarlashtirish muhitini hissiy uyg'unlik ko'rsatkichlari emotsional rezonansni kuzatish asosida aniqlashga oid takliflar OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli amaliy loyiha bajarilishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-

yil 14-avgustdagi 22-01-487/22 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, pedagogik qadriyatlarning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash imkoniyatlari kengaytirilgan;

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish modeli turli madaniy muhitlarga moslashuvchan muloqotda shaxsga yo'naltirilgan individual va umumbashariy qadriyatlarni anglashga yo'naltirilgan ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishning pedagogik ta'sir vositalarini bifurkasion rag'batlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflar OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli amaliy loyiha bajarilishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-avgustdagi 22-01-487/22 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy fanlar mazmuni hamda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilgan;

migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bolaning ijtimoiy va turmush sharoitlarini pedagogik baholash, uning yangi ijtimoiy muhitga ko'nikish inkubatsiyasini va nostandart sharoitlarda o'z huquqlarini himoya qilishga yo'naltirilgan fuqarolik pozitsiyasini voqelik faktorlari va shaxsiy qiziqishlariga muvofiq moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflardan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli amaliy loyiha bajarilishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-avgustdagi 22-01-487/22 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish modelini ishlab chiqishga sharoit yaratilgan;

ta'lim jarayonida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish samaradorligi ko'pmadaniy muhitda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi interaktiv, kognitiv funksiyalarni transmadaniy muloqot texnologiyalaridan foydalanishda migratsion jarayonlarning o'ziga xos ijtimoiy jihatlarini etnomadaniy xususiyatlariga muloqot orqali moslashuvchanligi asosida aniqlashga oid takliflardan OT-F1-049 raqamli "Talabalarga assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" nomli amaliy loyiha bajarilishida foydalanilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 14-avgustdagi 22-01-487/22 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim jarayonida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, 150 sahifa matn, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan borat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti

aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning ilmiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish zaruriyati, migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, migrant oila farzandlarining pedagogik qadriyatlarini shakllantirishdagi muammolari tahlil qilingan.

Bugungi kunda dunyodagi migratsiya holati murakkab va ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, global siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Migratsiya insoniyat tarixining ajralmas qismi bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham davom etmoqda. XIX asr oxirida E.G. Ravensteinning migratsiya qonunlari e‘lon qilinganidan keyin migratsiya atamasi keng tarqala boshladi. Ravenstein migratsiya hodisasini o‘rganishga ilmiy yondashuvni kiritgan va uning ishlari demografiya va sotsiologiya kabi fanlarda migratsiya tushunchasining shakllanishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Garchi Ravenstein “migratsiya” atamasini o‘ylab topmagan bo‘lsa ham, uning migratsiyaning sabablari, shakllari va oqibatlari haqidagi tadqiqotlari bu atamaning ilmiy doiralarda keng qo‘llanilishiga turtki bo‘lgan. Ravensteinni migratsiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning asoschilaridan biri sifatida ko‘rish mumkin.

Migratsiya — bu odamlarning bir joydan boshqa joyga ko‘chishi, odatda, yangi yashash joyida turmush tarzini o‘zgartirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu jarayon iqtisodiy (ish o‘rinlari, yuqori daromad yoki yaxshiroq iqtisodiy sharoitlarni izlash), siyosiy (urush, zulm yoki siyosiy beqarorlikdan qochish), ijtimoiy (oilalarning a‘zolari bilan birga bo‘lish, ta‘lim olish yoki madaniy muhitni o‘zgartirish istagi) va tabiiy (tabiiy ofatlar, zilzilalar yoki iqlim o‘zgarishlari) kabi sabablarga ko‘ra sodir bo‘lishi mumkin. Migratsiya ichki (bir mamlakat ichida) va xalqaro (bir mamlakatdan boshqasiga) bo‘lishi mumkin. Migratsiya turlarini tasniflashda hududiy belgi, ko‘chishning ixtiyoriyligi, davomiyligi va qonuniyligi kabi mezonlarga asoslaniladi. Migrantlar ko‘pincha yangi joyda ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan integratsiyalashishga harakat qiladilar.

Xususan Xalqaro migratsiya tashkiloti IOM tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra; “Migrant (lotincha “migrans” - ko‘chib o‘tuvchi) - bu o‘zining doimiy yashash joyini ixtiyoriy ravishda yoki majburiy ravishda tark etib, boshqa geografik hududga, odatda boshqa davlatga (xalqaro migrant) yoki o‘z mamlakati ichida (ichki migrant) ko‘chib o‘tgan shaxs. Bu ko‘chish odatda uzoq muddatli (bir yildan ortiq) yoki doimiy yashash maqsadida amalga oshiriladi” deb tarif berilgan. R.Cohen migrantni “o‘zining odatiy yashash joyidan uzoqda yashovchi va ishlaydigan shaxs”, M.Miller “ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi”, J.Zayonchkovskaya “doimiy yashash joyini o‘zgartirgan va boshqa hududda uzoq vaqt davomida yashovchi shaxs”, B.To‘rayev “O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi” deb ta‘riflaydi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida migratsiya jarayonlarining kuchayishi oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, xususan, farzandlarning ta‘lim olish imkoniyatlari va motivatsiyasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Sifatli ta‘lim olish, migrant oilalar uchun

birinchi navbatda, bolalarning kelajagini yaxshilash va ularni jamiyatning faol a'zolari sifatida tarbiyalash imkonini beradi.

Migrant oila — bu bir mamlakatdan boshqa mamlakatga yoki bir hududdan boshqa hududga ko'chib o'tgan, yangi yashash joyida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy integratsiyaga intilayotgan oiladir. Ular ko'pincha iqtisodiy imkoniyatlarni yaxshilash, ta'lim olish yoki siyosiy beqarorlikdan qochish maqsadida migratsiya qiladilar.

Migrant oilalar shuningdek, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi, yangi ish o'rinlarini yaratishi va madaniy diversifikatsiyani ta'minlashi bilan ijtimoiy tizimlarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ularning mavjudligi va tajribalari global miqyosda migratsiya jarayonining murakkabligini va insoniyat tarixidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi. Migrant oilalarni tasniflashda ularning migratsiyagacha bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy mavqei, ko'chish sabablarining ixtiyoriy yoki majburiyligi hamda qabul qiluvchi jamiyatdagi dastlabki tayanch nuqtalari (masalan, qarindoshlar yoki diaspora mavjudligi) kabi omillar ularning ta'limga oid qarashlari va farzandlari uchun tanlaydigan strategiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi

Global migratsion oqimlarning intensivlashuvi zamonaviy jamiyatlar, jumladan O'zbekiston uchun ham yangi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni yuzaga keltirmoqda, bunda migrant oilalar farzandlari, ya'ni migrant o'quvchilarning ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Migrant o'quvchi bevosita migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan oila farzandlari bo'lib, mavsumiy yoki doimiy mehnat migratsiyasida natijasida oilasi va farzandlaridan uzoqda bo'lgan oila boquvchilarning farzandlari ya'ni otasi yoki onasidan uzoqda bo'lib ta'lim olayotgan o'quvchilar ham migratsiya jarayoni ta'sirida bo'ladilar. Migratsiya jarayonida ishtirok etayotgan o'quvchilar va migrant oila farzandlari ko'plab ta'limiy muammolarga duch kelishadi. Migrant o'quvchilar yangi muhitda do'stlar orttirishda va ijtimoiy aloqalarni o'rnatishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin, bu esa ularning psixologik salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim tizimiga moslashuvdagi farqlar, stress va bezovtalik, uyni, ota-ona sog'inchi hamda yangi muhitga moslashish jarayoni diqqatni jamlashga to'sqinlik qiladi. Bularning barchasi migrant o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Migrant o'quvchi - bu o'zining doimiy yashash joyini tark etgan va ota-onalari yoki qonuniy vakillari bilan birga boshqa geografik hududga, odatda boshqa davlatga (xalqaro migrant o'quvchi) yoki o'z mamlakati ichida (ichki migrant o'quvchi) ko'chib o'tgan, 18 yoshga to'lmagan shaxsdir. Migrant o'quvchilar yangi jamoaga moslashish, ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar, til to'siqlari, diskriminatsiya, va psixologik stress kabi bir qator muammolarga duch kelishlari mumkin. Bu belgilar ularni ta'lim jarayonida ishtirok etayotgan boshqa o'quvchilardan ajratib turadi.

Migrant oilalar farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish, ularning ta'lim olish jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtirishi va yangi jamoaga moslashuvchanligini oshiradi. Pedagogik qadriyatlar ta'lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo'lib, ularning mazmuni o'quvchilarni tarbiyalash, bilim berish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Pedagogik qadriyatlar o'z ichiga bilim olishga bo'lgan intilish, hurmat, tenglik, hamjihatlik, javobgarlik hissi, ijtimoiy adolat, hamkorlik, mas'uliyat kabi tushunchalarni oladi. Bu qadriyatlar ta'lim muhitida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni belgilaydi, shuningdek, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogik qadriyatlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatini,

balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlashdir. Pedagogik qadriyatlar ta‘lim tizimining ijtimoiy kontekstida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ta‘lim jarayonida madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, turli ijtimoiy qatlamlardan kelgan o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish va ijtimoiy adolatni ta‘minlashga qaratilgan. Pedagogik qadriyatlar o‘qituvchilarning professional etikasi va o‘z vazifalariga bo‘lgan mas‘uliyatini belgilaydi, bu esa ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. O‘qituvchilar pedagogik qadriyatlarni o‘z faoliyatlariga singdirish orqali nafaqat bilim berish jarayonini, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishini ham ta‘minlaydilar.

Migrant oilalar farzandlarida o‘quv-tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni didaktik jihatdan katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, bu jarayon turli madaniy muhitlardan kelgan bolalarda o‘zlikni asrab qolishga xizmat qiladi. Ta‘lim muhitida milliy va umuminsoniy merosni yangicha qadriyatlar bilan insonparvarlik asosida uyg‘unlashtirish, xissiy uyg‘unlik ko‘rsatkichlari hamda emotsional rezonans orqali kuzatiladi.

Emotsional rezonans — bu insonning boshqalar tomonidan ifodalangan his-tuyg‘ularni chuqur darajada his qilishi, ular bilan hissiy uyg‘unlikka kirishi va ularga o‘z ta‘sirini sezishi holatidir. Emotsional rezonans insonlarning munosabatlarida o‘zaro yaqinlik va samimiylilikni kuchaytiradi hamda ta‘lim va tarbiya jarayonlarida o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini aniqlash va ularni qo‘llab-quvvatlash uchun muhim vosita hisoblanadi. Didaktik jarayonlarda o‘qituvchi milliy meros elementlarini zamonaviy insonparvarlik qadriyatlari bilan bog‘lab, dars jarayonlarini tashkil etishi, bolalarning o‘zligini anglash va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini mustahkamlaydi. Migrant oilalar farzandlari uchun yaratilgan ta‘lim-madaniy muhit ularning nafaqat akademik rivojlanishiga, balki milliy o‘zlikni saqlash va keng dunyoqarashga ega bo‘lishlariga ham xizmat qiladi. Bu jarayon didaktik usullar orqali amalga oshirilib, o‘quvchilarda milliy va umumjahon qadriyatlarni integratsiyalashgan holda o‘rgatishni ta‘minlaydi.

Mexnat migratsiyasida bo‘lgan ota-onalarning o‘z farzandlari ta‘limiga ko‘rsatadigan yordami ko‘pincha faqat moddiy qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanib qolmoqda. Migrant ota-onalarning farzandlari ta‘limiga ta‘sir ko‘rsatuvchi kompleks omillar, jumladan, moliyaviy yordam bilan bir qatorda, migratsiya tajribasidan kelib chiquvchi empatik muloqotlarning bolalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirish va ijtimoiy integratsiyasini mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Migrant ota-onalar uchun farzandlarining sifatli ta‘lim olishini ta‘minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ko‘p hollarda, migratsiyaning asosiy sabablaridan biri ham aynan oilaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash va shu orqali farzandlarga yaxshiroq kelajak yaratish istagi bilan bog‘liq bo‘ladi. Moddiy qo‘llab-quvvatlash ta‘lim resurslariga (o‘quv qurollari, kitoblar, qo‘shimcha darslar, texnologiyalar) ega bo‘lish, shuningdek, o‘quv muassasalari bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash imkonini beradi.

Moliyaviy ko‘mak muhim bo‘lsa-da, migrant ota-onalarning farzandlari bilan o‘rnatgan empatik muloqoti ularning ta‘limga bo‘lgan ichki motivatsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Migratsiya jarayoni – bu nafaqat ota-onalar, balki bolalar uchun ham jiddiy psixologik sinovdir. Yangi muhitga moslashish, ijtimoiy izolyatsiya xavfi kabi qiyinchiliklar bolalarning ruhiy holatiga va o‘qishga bo‘lgan ishtiyogiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda ota-onalarning farzandlarining his-tuyg‘ularini tushunishi, ularning tashvish va qiyinchiliklarini

baham ko‘rishi, qo‘llab-quvvatlashi hamda ta‘limning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini tushuntirishi muhim. Migratsiya tajribasini boshdan kechirgan ota-onalar ko‘pincha farzandlarining o‘quv jarayonidagi qiyinchiliklarini chuqurroq anglaydilar va ularga nisbatan yuqori darajada hamdardlik (empatiya) namoyon eta oladilar. Bunday o‘zaro tushunishga asoslangan suhbatlar o‘quvchilarda ishonch hissini mustahkamlaydi, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ta‘lim orqali yangi jamoada o‘z o‘rnini topishga intilishini rag‘batlantiradi. Ota-onalarning o‘z hayotiy tajribalari, migratsiyadagi qiyinchiliklar va ularni yengib o‘tish yo‘llari haqidagi hikoyalari farzandlar uchun kuchli motivatsion omil bo‘lish bilan bir qatorda oilaviy munosabatlarni hamda oilaviy qadriyatlarni muxtahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Ta‘lim – migrant o‘quvchilarning yangi jamoaga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvining eng muhim vositalaridan biridir. Ota-onalarning farzandlarini ta‘lim olishga faol undashi nafaqat akademik bilimlarni egallashga, balki yangi ijtimoiy muhitga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. ta‘lim muassasalari yangi jamoa bilan tanishish, tengdoshlari bilan muloqot o‘rnatish va ijtimoiy aloqalarni kengaytirish imkonini beradi. Ta‘lim orqali erishilgan muvaffaqiyatlar migrant o‘quvchilarning ijtimoiy mavqeini yaxshilaydi, ularning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi va pirovardida, qabul qiluvchi jamiyatning to‘laqonli a‘zosiga aylanishiga zamin yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik shart sharoitlari tadqiq etilgan. Migrant oila farzandlarida ijtimoiy fanlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning funksional modeli ishlab chiqilgan hamda migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishni joriy etish texnologiyalari tahlil qilingan.

Pedagogik qadriyatlar turli xil tasniflar asosida belgilanishi mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlar — bu qadriyatlarning universal darajasi bo‘lib, ular madaniy yoki diniy farqlardan qat’iy nazar har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega. Bu qadriyatlar insoniyatning umumiy maqsadlari va tamoyillarini aks ettiradi.

Milliy qadriyatlar esa ma'lum bir xalqning tarixi, madaniyati va an'analari bilan bog‘liq bo‘lib, bu qadriyatlar xalqning o‘ziga xosligini belgilaydi va uning madaniy merosini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shaxsiy qadriyatlar har bir insonning o‘z hayotiy tamoyillari, maqsadlari va me‘yorlari tizimi sifatida shakllanadi. Bu qadriyatlar insonning ichki dunyosi, hayotga munosabati va qarorlari bilan bevosita bog‘liqdir.

Ijtimoiy qadriyatlar esa jamiyatda birga yashash va hamkorlik qilishni ta'minlovchi, ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishni rag‘batlantiruvchi qadriyatlar hisoblanadi. Ushbu qadriyatlar jamiyatning muhim tamoyillarini shakllantiradi va uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Barcha bu qadriyatlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, yaxshi pedagogik muhit yaratishda mo‘ljallangan.

Pedagogik qadriyatlar ta‘lim olish va o‘rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchining ma'naviy va intellektual rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu qadriyatlar qatoriga o‘qishga mas'uliyatli yondoshish, vaqtni samarali nazorat qilish, ilmiy izlanishga sadoqat, hamda bilimlarni baholashda xolislik kabi prinsiplar kiradi. O‘quvchilarni mas'uliyatli va tartibli bo‘lishga undash, ularda o‘z bilimlariga, shuningdek, o‘z vaqtini boshqarishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish pedagogik

qadriyatlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Bunday qadriyatlar tizimi orqali o'quvchilar barkamol shaxs sifatida kamol topadi, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishga tayyor bo'ladi va jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga o'z hissasini qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagogik qadriyatlar o'quvchilarda, yangiliklarga ochiqlikka, yaratishga va o'zaro hurmatga asoslangan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonining umumiy sifatini oshiradi.

Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayonini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga amal qilish muhimdir:

Komplekslik tamoyili: Qadriyatlarni shakllantirish nafaqat ta'lim jarayonida, balki tarbiya, shaxsiy muloqot, oilaviy muhit va maktabdan tashqari faoliyatda ham amalga oshirilishi kerak. Barcha ta'sir etuvchi omillarning uyg'unligi ta'minlanishi lozim.

Tizimlilik va izchillik tamoyili: Qadriyatlarni shakllantirish bir martalik tadbirlar emas, balki uzluksiz, rejalashtirilgan va izchil amalga oshiriladigan tizim bo'lishi kerak. Har bir bosqich oldingisining mantiqiy davomi bo'lishi zarur.

Faollik tamoyili: Bola qadriyatlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi bo'lishi kerak. O'yinlar, loyihalar, munozaralar, ijodiy ishlar orqali bolaning qadriyatlarni shaxsiy tajriba sifatida o'zlashtirishi ta'minlanadi.


Shaxsga yo'naltirilganlik tamoyili: Har bir bolaning individual xususiyatlari, qiziqishlari, madaniy kelib chiqishi va moslashuv darajasi hisobga olinishi lozim. Qadriyatlarni singdirishda majburiy yondashuvlardan voz kechish, bolaning o'z tanlovi va ichki motivatsiyasini rag'batlantirish muhim.

Madaniyatlararo aloqadorlik tamoyili: Migrant o'quvchilari uchun bu tamoyil ayniqsa muhim. Ta'lim jarayonida bolaning kelib chiqqan madaniyati va qabul qiluvchi jamiyat madaniyatining xususiyatlarini inobatga olish, ular o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni tushuntirish, ikki madaniyatga ham hurmatni singdirish kerak. Bu bolaning ikki o'zlikni shakllantirishiga yordam beradi.

Uzviylik tamoyili: Qadriyatlarni shakllantirish jarayoni oiladan maktabga, maktabdan tengdoshlar muhitiga va jamiyatga uzviy ravishda davom etishi lozim. Oila, maktab va jamoatchilik o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatish zarur.

Musbat namuna tamoyili: Ota-onalar, o'qituvchilar va boshqa kattalarning shaxsiy namunalari, ularning qadriyatlarga amal qilishlari o'quvchilarda ijobiy xulq-atvor modelini shakllantiradi.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan "Migrant oila farzandlarida ijtimoiy fanlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning funksional modeli" (1-rasm), bu turli madaniy muhitlarda ulg'aygan va ijtimoiylashayotgan bolalarning shaxsiy hamda ijtimoiy moslashuvini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks pedagogik yondashuv hamda bir-biri bilan o'zaro bog'liq elementlar tizimi bo'lib, u shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari asosida jarayonni tizimli, aniq va samarali boshqarish imkonini beradi. Ushbu model o'quvchilarning individual psixologik va madaniy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning o'z-o'zini anglash, jamiyatga moslashish va o'zini erkin ifoda etishiga zamin yaratishga xizmat qiladi. Mazkur model ijtimoiy integratsiyaga xizmat qiladigan, barqaror shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan zamonaviy tarbiyaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilgan. Modelning mazmunli-faoliyatli komponenti ushbu jarayonning markaziy qismi bo'lib, individual va umumbashariy qadriyatlarni uyg'un anglash, o'zlikni yo'qotmasdan yangi madaniy muhitda to'laqonli ishtirok etish, ijtimoiy-hissiy salohiyatni rivojlantirish imkoniyatini beradi.



1-rasm. Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirishning funksional modeli

Bu jarayonda ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilishning pedagogik ta'sir vositalari muhim o'rin tutadi. Modelning o'ziga xos jihati — “bifurkatsion rag'batlantirish mexanizmi” bo'lib, ushbu mexanizm orqali ta'limiy jarayonni moslashuvchan tarzda boshqarishni mumkin. Bu jarayonda o'quvchilarning psixologik holati, ijtimoiy tayyorgarligi, motivatsiyasi va madaniy tajribasiga qarab individual pedagogik ta'sir kuchaytiriladi yoki yumshatiladi. Modelning mazmunli-faoliyatli komponenti o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarni bevosita o'zlashtirish va amaliyotda qo'llashga qaratilgan asosiy faoliyatni o'z ichiga oladi, bunda ijtimoiy fanlar o'ziga xos imkoniyatlar yaratadi. Ushbu komponentning asosiy vazifasi – o'quv dasturlarini qadriyat mazmuni bilan boyitish va o'quvchilarda o'zaro hurmat, tolerantlik, fuqarolik mas'uliyati, insonparvarlik, halollik, mehnatsevarlik kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlarni tizimli ravishda singdirishdan iborat. Mazmunli-faoliyatli komponentda ijtimoiy fanlar (tarix, huquq, tarbiya) darslari orqali qadriyat mazmunini o'zlashtirishga urg'u beriladi.

Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayoni bolaning ijtimoiy va turmush sharoitlarini puxta pedagogik baholashga asoslanadi. Bu jarayon uning yangi ijtimoiy muhitga moslashuvi, ya'ni ko'nikish inkubatsiyasini qo'llab-quvvatlash bilan birga, nostandart va murakkab sharoitlarda o'z huquqlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Bu faoliyat voqelik faktorlari va bolaning shaxsiy qiziqishlariga muvofiq moslashtiriladi va takomillastiriladi. Bu yondashuv orqali migrant farzandlarining ta'lim-tarbiyaviy qadriyatlari ijtimoiy kontekstga mos holda rivojlantiriladi va ular jamiyatda faol, o'z huquqlari va burchlarini anglaydigan shaxs sifatida shakllantiriladi. Mazkur modelning jarayon komponentida ijtimoiy fanlar integratsiyasida migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish usullari tahlil qilingan. “Mening salbiy odatlarim”, “Agar men bilim olsam”, “Mening shaxsiy qadriyatim tahlili”, “Muhokama qilamiz” mavzularida refleksiv mashqlari hamda “O'zbekistonning boyliklari: kelajak avlod uchun asrash”; “Mening oilam tarixi; Vatanim tarixi va kelajagi”; “Agar men ota(ona) bo'lganimda... Hech qachon qilmas edim...”; “Men ota-onamni yaxshi ko'raman chunki...”; “Men maktabimni yaxshi ko'raman chunki...”; “10 yildan keyin men”; “Dadamning ish kuni” mavzularida loyiha ishlarining metodikasi ishlab chiqilgan. Jarayon komponentida “Migrant oila farzandlarida ijtimoiy fanlar asosida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish subyektlari(fan o'qituvchilari, sinf rahbari, psixolog, yoshlar yetakchisi, profilaktika noziri, mahalla faollari, ota-onalar)” ning faoliyat trayektoriyasi ishlab chiqilgan.

Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish - bu murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, biz bu jarayonni quyidagi 4 bosqichga ajratdik. Ushbu bosqichlar ularning yoshiga, bilish darajasi va yangi muhitga moslashish darajasiga qarab farq qilishi mumkin.

Dastlabki bosqich: Oila qadriyatlarini shakllantirish. Bu bosqichda bola o'z oilasi va muhitida o'sadi. U oilaning qadriyatlari, an'analari, urf-odatlar va e'tiqodlari bilan tanishadi. Ota-onalar va oilaning boshqa a'zolari bolaning qadriyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bola oilaning qadriyatlarini qabul qiladi, ularga sodiq bo'ladi va ularni o'z hayotida qo'llashga harakat qiladi. Bu bosqichda bolaning qadriyatlari asosan oilaning ta'siri ostida shakllanadi.

Ikkinchi bosqich: Maktab va tengdoshlarning ta'siri. Bola maktabga boradi va

yangi ijtimoiy muhitga tushadi. Bu bosqichda u o'qituvchilar, tengdoshlar va maktab madaniyati bilan tanishadi. Maktabda o'qitiladigan qadriyatlar oilaning qadriyatlaridan farq qilishi mumkin. Bola turli qadriyatlar bilan to'qnashadi, ularni solishtiradi va o'ziga mos keladiganlarini tanlaydi. Bu bosqichda bolaning qadriyatlari nafaqat oilaning, balki maktab va tengdoshlarning ham ta'siri ostida shakllanadi.

Uchinchi bosqich: Ijtimoiy moslashuv va integratsiya. Migrant oila farzandlari yangi muhitga moslashishga harakat qiladi. Bu bosqichda ular yangi tilni o'rganadi, yangi urf-odatlariga moslashadi va yangi ijtimoiy normalarni qabul qiladi. Bola yangi jamoaga ham moslashishga intiladi. U ikki madaniyatning qadriyatlarini birlashtirgan yangi shaxsiy qadriyatlar tizimini yaratadi. Bu bosqichda bolaning qadriyatlari ijtimoiy moslashuv va integratsiya jarayoni ta'sirida shakllanadi.

To'rtinchi bosqich: Shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish. Bola o'z shaxsiy qadriyatlarini shakllantiradi, ularni tahlil qiladi va o'z hayotida qo'llashga qaror qiladi. Bu bosqichda u mustaqil fikrlashga, qaror qabul qilishga va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni olishga qodir bo'ladi. Bola o'z qadriyatlariga sodiq bo'ladi, ularni himoya qiladi va ularga mos ravishda harakat qiladi. Bu bosqichda bolaning qadriyatlari uning shaxsiy tajribasi, bilim va e'tiqodlari asosida shakllanadi.

Ushbu jarayon to'g'ri tashkil etilsa migrant oila farzandlarida jamiyat uchun muhim bo'lgan va inson farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan adolat, hurmat, mas'uliyat, hamkorlik, mehribonlik, halollik, rostgo'ylik, sadoqat, mehnatsevarlik, bilimga intilish, tinchliksevarlik, ekologik ma'suliyat, bag'rikenglik kabi asosiy pedagogik qadriyatlarni shakllanadi.

Ushbu qadriyatlar jamiyatning mustahkam poydevorini tashkil etadi, insonlarning birgalikda yashashi va farovonligini ta'minlaydi.

Migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayonining samaradorligini baholash va nazorat qilish uchun aniq va tizimli mezonlar zarur bo'lib, ular ushbu murakkab jarayonning har bir jihatini ob'ektiv tahlil qilish imkonini beradi. Bu mezonlar o'quvchilarda qadriyatlarning nafaqat nazariy bilim sifatida, balki shaxsiyatning ajralmas qismi sifatida shakllanganligini ko'rsatadi. Asosiy mezonlarni quyidagicha taqdim etish mumkin:

Kognitiv mezon: Bolalarning umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, huquqiy tushunchalar hamda turli madaniyatlar xususiyatlari haqidagi bilimlari darajasini aks ettiradi. Bu yerda bolaning tolerantlik, insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalarni to'g'ri tushunishi, ularning mazmunini izohlay olishi, turli ijtimoiy vaziyatlarda ularning ahamiyatini ang'lay olish qobiliyati baholanadi.

Hissiy mezon: Bolalarning qadriyatlarga nisbatan shaxsiy munosabatini, ularning hissiy kechinmalarini va baholash qobiliyatini o'lchaydi. U bolaning o'ziga va o'zgalarga nisbatan hurmatini, empatiyasini, o'zga madaniyatlarga ijobiy munosabatini, adolatsizlikka nisbatan nafratini, milliy g'urur tuyg'usini, shuningdek, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga hissiy javob qaytarishini o'z ichiga oladi.

Faoliyatli mezon: Shakllangan qadriyatlarni bolaning kundalik xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatida qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bu yerda bolaning ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishi, turli xil ijtimoiy vaziyatlarda qadriyatli tanlovlar qila olishi, jamoat ishlarida ishtirok etishi, o'zaro yordam ko'rsatishi, munozaralarda tolerantlik bilan ishtirok etishi, qonunlarga rioya qilishi va jamiyatga foyda keltiruvchi

harakatlarni amalga oshirishi kabi ko'nikmalar baholanadi.

Motivatsion mezon: Bolaning qadriyatlarga amal qilishga bo'lgan ichki istagini, ularni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini va qadriyatli xulq-atvorga bo'lgan motivatsiyasini aniqlaydi. Bu yerda bolaning o'z-o'zini takomillashtirishga intilishi, axloqiy me'yorlarga ongli ravishda amal qilishga intilishi, mas'uliyatli va halol bo'lishga intilishi, shuningdek, qadriyatlarni o'z hayotining asosiy yo'nalishi sifatida qabul qilishi baholanadi.

O'zlikni anglash va identifikatsiya mezoni: Bu mezon migrant o'quvchining o'z shaxsiy va madaniy o'zligini anglash darajasini, shuningdek, yangi jamiyatga integratsiya jarayonini aks ettiradi. U bolaning o'z milliy madaniyatiga va tiliga hurmatini saqlagan holda, yangi madaniyat va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashishini, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his qilishini, turli madaniy guruhlar bilan muloqot qila olishini va o'zini ham mahalliy, ham milliy guruhga mansub deb bilishini o'z ichiga oladi. Ushbu mezonlar majmuasi migrant oila farzandlarida pedagogik qadriyatlarni shakllantirish jarayonini kompleks baholashga, o'qituvchilarga samarali metodlarni tanlashga va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvni qo'llashga imkon beradi, bu esa ularning kelajakda jamiyatning to'laqonli va mas'uliyatli a'zosi bo'lishi uchun muhimdir.

Migrant o'quvchilarda pedagogik qadriyatlarni shakllantirishdagi o'ziga xosliklar (madaniy moslashuv muammolari, identifikatsiya inqirozi) sababli, diagnostika ularning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish, shakllangan qadriyatlarini aniqlash va moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish uchun zarurdir. Bu jarayonda pedagogik diagnostika, o'zbek pedagogikasida keng e'tirof etilganidek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini, bilimlarini, ko'nikmalarini va qadriyatlarining shakllanish darajasini aniqlashga yordam beradi. Pedagogik diagnostika vositasi sifatida Heller, Katz, Torrens, Karpov testlari va Likert shkalasi samarali hisoblanadi: Heller testi - axloqiy qarashlar va qadriyatlarni baholashga qaratilgan, o'quvchilarning ijtimoiy adolat va mas'uliyatga nisbatan munosabatlarini aniqlaydi. Katz testi - ijtimoiy kompetentlik va empatiyani o'rganishga mo'ljallangan, migrant o'quvchilarda tolerantlik va hamkorlik kabi qadriyatlarni baholaydi. Torrens testi - ijodiy qobiliyatni baholashda qo'llaniladi, ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi kreativlikni ko'rsatadi. Karpov testi esa o'zini-o'zi boshqarish va mas'uliyat hissini baholaydi, intizomlilik va qiyinchiliklarga qarshi kurashish irodasini aniqlaydi. Likert shkalasi o'quvchilarning fikrlarini va munosabatlarini baholashda universal vosita bo'lib, ijtimoiy qadriyatlarning shakllanish dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

